

IFRS” HOMLI  
KONFERENCIYA

CONFERENCE “GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS”

2nd FORUM OF  
DEVELOPMENT  
STRATEGY:  
GLOBAL AND  
NATIONAL  
ECONOMIC  
TRENDS



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЙЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ  
ИҚТИСОДИЁТНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА  
ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАР  
“Глобал ва миллий  
иқтисодий трендлари”

ERENCE

19-20  
OCTOBER

ФОРУМ

PARALLEL CONFERENCES  
“NEW2AN, ICFNDS  
AND ICDSIS”

2nd FORUM OF  
DEVELOPMENT  
STRATEGY:  
GLOBAL AND  
NATIONAL  
ECONOMIC  
TRENDS

NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS”

CONFERENCE  
“IFRS”

GLOBAL  
ECONOMIC  
TRENDS”  
2nd FORUM OF  
DEVELOPMENT  
STRATEGY:  
GLOBAL AND  
NATIONAL

“IFRS”

HOMLI

МЛМ  
ШМЯ

2nd FORUM  
DEVELOPMENT  
STRATEGY:

# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

## 2023

ILMIY ELEKTRON JURNAL MAXSUS SON

ФОРУМ

19-20 OCTOBER

PARALLEL CONFERENCES  
“NEW2AN, ICFNDS

AND ICDSIS”

РАҚАМЛИ ИҚТИСО  
АХБОРОТ ТЕХНОЛ  
ВА ТАЪЛИМНИНГ  
ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎН  
“NEW2AN, ICFNDS,  
номли параллель  
конференциялар

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agriculture



# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

[laboreconomics.uz](https://laboreconomics.uz)

“**Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali**” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.  
**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.

**Elektron manzil:** [ilmiymaktab@gmail.com](mailto:ilmiymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog‘lanish uchun telefonlar:**

+998 (99) 881-86-98.

TOSHKENT-2023

**EDITORIAL BOARD | TAHRIRIYAT KENGASHI**

**Tahririyat Kengashi raisi: (Chairman of the Editorial Board)**

Abdurahmanov Qalandar Xodjayeovich, O‘zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a‘zolari: (Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich,  
i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich,  
i.f.d., prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich,  
t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich,  
i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich,  
i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich,  
i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich,  
i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich,  
i.f.d, prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,  
i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po‘latovich,  
i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna,  
i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich,  
i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich,  
i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayev,  
i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich,  
i.f.f.d., (PhD), dots.

G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich,  
i.f.f.d., (PhD), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich,  
i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a‘zolari:**  
*(Community Council members)*

Bred Bodenzauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich  
(Rossiya Federasiyasi)

Keynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)



**Mas‘ul muxarrir (Editor-in-Chief):**

G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

**Veb-administrator (Web admin):**

Musayev Xurshid Sharifjonovich





## MUNDARIJA (CONTENTS)

### MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI

Q.X. Abdurahmonov S.B. G'oyipnazarov	Сунъий интеллектни жорий этиш натижасида меҳнат бозоридаги ўзгаришлар .....	6–12
R.I. Nurimbetov A.M. Ismailov	O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishi va aholi bandligini manfaatdorlik indeksi asosida baholash .....	13–21
N.T. Shayusupova S.S. Amirdjanova	Прогнозирование макроэкономических показателей роста экономики и занятости населения республики .....	22–29
I.A. Bakiyeva	Тошкент вилоятида ишсизларни замонавий касб-ҳунарга ўқитишни самарали ташкил этиш йўллари .....	30–34
S.I. Sotnikova	Наемный труд: институциональные эффекты неравновесной экономики .	35–41
A.S. Usmanov M.A. Bahridinova	Qashqadaryo viloyatida bandlikning tarmoq tuzilishidagi o'zgarishlar va uning aholi turmush farovonligiga ta'siri .....	42–48
X.F. To'xtayeva	Туристик хизматлар бозорида бандликни тартибга солиш ва бошқариш бўйича илғор хорижий тажрибалар .....	49–56
B.Z. Ganiyev	O'zbekiston hududlarida bandlikning iqtisodiy o'sishga nisbatan elastikligi tahlili .....	57–61

### INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

S. Sotnikova N. Sotnikov	Ecology of the employee's career based on the concept of time management .	62–70
A.N. Turayev B.B. Suvonov	Направления развития анализа затрат труда в хозяйствующих субъектах	71–76
B.B.Suvonov	Зарубежный опыт анализа показателей затрат труда в хозяйствующих субъектах .....	77–82
Z.M. Xasanova	Enhancing economic education and human resources management: a study of innovative approaches in Uzbekistan's higher education institutions .....	83–91
R.R. Oqmullayev	Инсон ресурсларини бошқариш — олий таълим муассасаларининг глобал рақобатбардошликка эришиш омили .....	92–102
B.B. Mardonov	Xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini baholash .....	103–108
M.Sh. Xaydarova	Использование искусственного интеллекта в управлении человеческими ресурсами .....	109–123

### INSON KAPITALI

A. Zikriyoyev D. Khojamqulov M. Raimjanova N. Turayev A. Abdullayev	Human capital development in the context of health and safety regulation: policy analysis in construction industry .....	124–138
A. Zikriyoyev M. Farmonova Ch. Keldiyorova D. Nekboyev O. Murodova	Orientation / induction day as a remedy for human capital investment at higher education .....	139–150
A.S. Boltayev Y.M. Otaboyev	The impact of health and education expenditure on economic growth in case of Uzbekistan .....	151–163
O.A. Eshbayev	Strategic integration of emerging technologies in engineering education: a holistic approach to cultivate human capital for the digital economy .....	164–169

A.O. Jumanov R.A. Omirzakov	Innovative environmental education in higher education: fostering sustainable mindsets for a greener future . . . . .	170–175
I.Sh. Khadjiyeva	School climate quality and education quality: evidence from 15 worst performing nations at PISA 2018 . . . . .	176–187
M.O. Kurolov	Leveraging digital healthcare marketing strategies to enhance social welfare through human capital development . . . . .	188–192
M. Numanova F. Khakimov	Priorities for the development of national human capital in the economy . . . . .	193–198
M.X. Xo‘jayeva	Properties of innovative activity in the education system of Uzbekistan . . . . .	198–203
H.T. Yaxshiyev	Mehmonxona hamda restorani biznesi faoliyati tushunchasi va mohiyati . . . . .	204–206
X.B. Nasriddinov	O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta‘lim metodlaridan foydalanish . . . . .	207–210
Sh.Y. Sharobiddinov	Investing in human capital: a comparative analysis of democratic and authoritarian regimes . . . . .	211–220
Z.M. Xasanova	Comparative analysis of innovative education management strategies for economic education and green development: lessons from foreign countries . . . . .	221–228
S.R. Xolbayeva	Трансформация системы подготовки кадров в целях повышения эффективности функционирования человеческого капитала в экономической системе . . . . .	229–238
<b>INSON TARAQQIYOTI</b>		
Sh.U. Jo‘rayeva	Socio-economic significance and analysis of the standard of living of the population . . . . .	239–244
N.M. Khazratkulova	The impact of inter-budgetary relations on regional growth and the standard of living of the population of the regions (on the example of the republic of Uzbekistan) . . . . .	245–250
<b>KAMBAG‘ALLIKNI QISQARITRISH</b>		
G.Q. Abduraxmonova M.X. Fayziyeva Sh.Q. Xoliyorova	O‘zbekiston davlat ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashda raqamli rivojlanishning o‘rni . . . . .	251–261
<b>GENDER TENGLIK</b>		
G.Q. Abruraxmonova N.U. Khalimjonov	Gender inequality in labour market . . . . .	262–268
<b>MUNOSIB MEHNAT</b>		
Sh.X. Raxmatullayeva	Milliy korxonalarda mehnat samaradorligining muhim ko‘rsatkichlarini baholash tizimini imkoniyatlari . . . . .	269–275
Z.U. Usmonov	Ko‘zi ojiz shaxslarni ish bilan ta‘minlashning obyektiv zarurligi . . . . .	276–283
<b>TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH</b>		
L.F. Amirov	Современные тенденции развития аграрного сектора Республики Узбекистан . . . . .	284–293
I. Khotamov A. Kasimov Y. Najmiddinov G. Yuldashev	The current importance of alternative energy and renewable energy in Uzbekistan . . . . .	294–317
Z.T. Abdurakhmanova	Factors affecting sustainable agriculture and food production in Uzbekistan . . . . .	318–328
J.X. Ishanov	Determination of hydraulically acceptable length of drip irrigation pipe . . . . .	329–334

U.Sh. Duskobilov	Influence of monetary policy instruments on macroeconomic stability during the transition to inflation targeting in Uzbekistan . . . . .	335–342
Sh.D. Ergashkhodjayeva E.Y. Khojiyev	The EU’s generalised system of preferences: impact on foreign trade of domestic products . . . . .	343–348
O.A. Eshbayev	Exploring synergies: redefining engineering education management for industry 4.0 in the digital economy era . . . . .	349–354
H.B. Haydarov	O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda xorijiy investitsiyalarning tutgan o‘rni . . . . .	355–361
M.R. Khidirova	Improving the efficiency of corporate governance based on the modeling of agricultural machinery enterprises . . . . .	362–369
B.N. Ishniyazov	Analysis of the activities of innovation of the agricultural sector of our country . . . . .	370–374
N.N. Ismoilov	Implementing SDGS (sustainable development goals) in small business entities . . . . .	375–380
N.S. Karimova	O‘zbekistonda klasterlar faoliyatini tashkil etish mexanizmi . . . . .	381–385
M.R. Khayitova	The essence of green loans in a global unstable environment . . . . .	386–391
S.B. Maxmudov	Milliy iqtisodiyotda eksport amaliyotiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlilini baholash . . . . .	392–401
Y.F. Najmiddinov	Initial efforts to develop green energy and green growth in Uzbekistan . . . . .	402–407
Ch.G. Nosirova	Developing sustainable pathways for textile product exports: a green strategy approach to enhance social welfare . . . . .	408–415
N. Khalimjonov P. Allayarov	The gravity trade model for Uzbekistan . . . . .	416–424
D. Usmonova	Evaluating the role of marketing strategies in fostering the growth of viticulture enterprises for achieving sustainable agricultural development . . . . .	425–431
<b>МАКРОИҚТИСОДИЙОТ</b>		
A. Valiyeva	Assessing the impact of sustainable agricultural practices on legume market dynamics: a comprehensive marketing research analysis . . . . .	432–440
V.K. Yarashova	The mutual influence of transport on macroeconomic indicators in Uzbekistan . . . . .	441–447
M.S. Yusupov G.T. Ismoilova	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirida agrosanoat klasterlarining ahamiyati va rivojlantirish imkoniyatlari . . . . .	448–459
M.T. Abdurahmanova M.M. Ismailova	Қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишнинг хориж тажрибасини такомиллаштириш . . . . .	460–465
N.B. Achilova	Сущность и значение национального брендинга стран в условиях глобализации . . . . .	466–474
J.N. Bayisbayev	Мамлакатимизнинг тадбиркорлик субъектларини ижтимоий фаолиятини қўллаб-қувватлашдаги иштироки . . . . .	475–481
A. Valiyeva	Оценка роли устойчивых методов ведения сельского хозяйства в повышении конкурентоспособности рынков бобовых: глобальный маркетинговый анализ . . . . .	482–490
F.R. Bobobekov	Мақроқиқтисодий барқарорлик шароитида факторингга таъсир этувчи омиллар . . . . .	491–497
D.B. Xajiyev	Даромадларни қайта тақсимлаш жараёнларини тартибга солишнинг фискал воситалари . . . . .	498–504



## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH ZANJIRIDA AGROSANOAT KLASTERLARINING AHAMIYATI VA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Yusupov Mukhiddin Soatovich**  
Oriental universiteti professor v.b., PhD

**G.T.Ismoilova**  
Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya.** Maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'molga yetkazib berish zanjirida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini klasterlash borasida ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari tadqiq etilgan. Shu bilan birga oziq-ovqat sektorda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va raqamlashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar.** Oziq-ovqat ta'minoti; qishloq xo'jaligi xomashyosi; tutash tarmoqlar; birlamchi va chuqur qayta ishlash; qo'shilgan qiymat zanjiri; oziq-ovqat mahsulotlari; klasterlash; agrosanoat klasterlari; klaster yadrosi; xizmat ko'rsatish; ilm-fan; institutsional tuzilmalar; xorij tajribasi.

## ЗНАЧЕНИЕ АГРОПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ В ЦЕПОЧКЕ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ

**Юсупов Мухиддин Соатович**  
Профессор в.и.о. “Oriental” университета, PhD

**Г.Т.Исмаилова**  
Преподаватель Ташкентского университета прикладных наук, PhD

**Аннотация.** В статье рассматривается опыт передовых зарубежных стран по развитию агропромышленных кластеров в цепочке производства продуктов питания и их поставок к потреблению и кластеризации отраслей сельского хозяйства и пищевой промышленности. При этом уделяется внимание осуществлению структурных изменений в пищевой сфере, модернизации производства и цифровизации.

**Ключевые слова.** продовольственное обеспечение; сельскохозяйственное сырье; смежные сети; первичная и глубокая обработка; цепочка добавленной стоимости; продукты питания; кластеризация; агропромышленные кластеры; ядро кластера; предоставление услуг; наука; институциональные структуры; зарубежный опыт.

## IMPORTANCE OF AGRO-INDUSTRIAL CLUSTERS IN THE FOOD PRODUCTION CHAIN AND OPPORTUNITIES FOR DEVELOPMENT

**Yusupov Mukhiddin Soatovich**  
Oriental University, acting professor, PhD  
1969msyusupov@gmail.com

**G.T.Ismailova**  
Teacher of Tashkent University of Applied Sciences, PhD

**Abstract.** The article examines the experiences of advanced foreign countries in the development of agro-industry clusters in the chain of food production and supply to consumption and clustering of agricultural and food industry sectors. At the same time, attention is paid to the implementation of structural changes in the food sector, modernization of production and digitization.

**Keywords.** food supply; agricultural raw materials; adjacent networks; primary and deep processing; added value chain; food products; clustering; agro-industry clusters; cluster core; service provision; science; institutional structures; foreign experience.



### Kirish:

So'ngi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish ahamiyati ortib bormoqda. Shu munosabat bilan respublikamizda fermer xo'jaliklarining qayta ishlash sanoati korxonalarini bilan chuqur hamkorligini ta'minlashga qaratilgan "agrosanoat klasterlari"ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Klaster va manfaatdorlik - O'zbekiston qishloq xo'jaligining kelajagi. Ilm-fan va innovatsiyalarni joriy etmay turib, bu sohani raqobatbardosh qilib bo'lmaydi" [1].

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi"da yangi va foydalanishdan chiqqan yerlarni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash darajasini oshirish va ularning narxlarini barqarorligini saqlash kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan [2].

Mazkur vazifalardan kelib chiqib respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, sanoat ko'lamida chuqur qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish zanjirida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

### Adabiyotlar tahlili:

Tadqiqotlarga ko'ra klaster, jumladan agrosanoat klasterini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish yuzasidan bir qator xalqaro tashkilotlar, xorijlik va mamlakatimiz olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, Yevropa Komissiyasining Korxonalar Bosh direktorati, Maykl Porter, Marker L.S., Zubova T.A., Nastyin A.A., Eva Gálvez-Nogales, Shukina L.V., Soliyev A., Kodirov X., Skvortsov E.N., Dalum B., Pedersen C., Villumsen G. va boshqa tadqiqotchilarni keltirish mumkin [3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; 14; 15; 16; 17].

Maykl Porteriga ko'ra "Klaster – geografik jihatdan bir joyda to'plangan o'zaro tutash sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalar (xomashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar) hamda ularga aloqador tashkilotlar (infratuzilmalar, universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, texnoparklar, davlat boshqaruvi organlari) guruhi [3, P. 77].

L.S. Markovning ta'rif berishicha klaster "o'zaro bog'liq va aloqador tarmoqlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining ma'lum maqsad yo'lida yagona tashkiliy tuzilma va texnologik jarayonga birikkan jamlanmasi" [5, c. 6].

T.A. Zubovaga ko'ra "Ishlab chiqarishning hududiy (geografik) jihatdan tutash joylashuvi; bir yoki bir nechta mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuv; klaster ichida raqobatni boshqarish mumkinligi; bir klaster doirasida turli tarmoqqa mansub korxonalar faoliyat ko'rsatishi evaziga "ko'lam samarasi"ni ta'minlash imkoniyati" [6, c. 4].

### Tadqiqot metodologiyasi:

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'molga yetkazib berish zanjirida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini klasterlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar:

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, agrosanoat klasterlari ishlab chiqarish kuchlarining tarixiy-evolyusion rivojlanishi tufayli yuzaga kelgan ob'ektiv iqtisodiy jarayon bo'lib, u ijtimoiy mehnat taqsimoti, kooperatsiya, ishlab chiqarish konsentratsiyalashuvi va ixtisoslashuvi hamda raqobatbardoshlikni oshiriga intilish mahsulidir.

Raqobat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan mashhur amerikalik olim M.Porter AQShning Kaliforniya uzum klasteri bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari asosida klasterning ahamiyati va hududiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini quyidagicha ta'riflaydi: "Klaster raqobatga uch yo'l bilan ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, hududdagi korxonalar ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi; ikkinchidan,





► Makroiqtisodiyot

kelajakda ishlab chiqarish unumdorligini o‘shirishga asos bo‘ladigan innovatsiyalarni harakatga keltiradi va uchinchidan, klasterlarni mustahkamlaydigan va kengaytirishga asos bo‘ladigan yangi biznes sohalarini vujudga keltiradi [3].

Muayyan hudud yoki tarmoqlarda klaster shakllanishi uchun quyidagi belgi va shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi maqsadga muvofiq:

1. Klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar (xomashyo yetishtirish, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, saralash va transportda tashish, tarqatish va sotish sohalarida), ularga xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalari, davlat organlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining geografik jihatdan yagona hududda to‘planishi va konsentratsiyalashuvi.

2. Hududda klasterlar rivojlanishi uchun raqobat ustunliklari mavjudligi: qulay geografik joylashuv; tabiiy-iqlim shart-sharoitlari; moddiy xomashyo zaxiralari, malakali mehnat resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari; ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatuvchi va bozor infratuzilmalaridan birgalikda foydalanish; o‘quv va ilmiy-tadqiqot muassasalari, laboratoriyalar, texnopark va biznes-inkubatorlarning rivojlanish holati va boshqalar.

3. Klasterga kiruvchi korxonalar, xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar va boshqa manfaatdor tashkilotlarning tarmoq ixtisoslashuvi yoki texnologik jihatdan o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini to‘ldirib borishi va ularning integratsiyalashuvdan o‘zaro manfaatdorligi.

4. Klasterning yadrosini tashkil etuvchi, butun tizimni yagona qo‘shilgan qiymat zanjiriga bog‘lashga qodir hamda kuchli ishlab chiqarish salohiyatiga yirik integrator firmaning mavjudligi (masalan, paxta-to‘qimachilik klasterida - to‘quv-trikotaj fabrikasi).

5. Klasterga kiruvchi tuzilmalar orasida o‘zaro teng huquqli, manfaatli, mustahkam, barqaror gorizont va vertikal strategik xo‘jalik aloqalarini mavjud bo‘lishi va huquqiy jihatdan kafolatlanishi.

6. Hudud yoki tarmoqda klasterlar rivojlanishini tartibga solish, huquqiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanuvchi davlat hokimiyati organlari va maqsadli davlat dasturlari, nodavlat tashkilotlar (uyushmalar, jamoat tashkilotlari, jamg‘armalar) shakllanganligi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, xomashyosi yetishtirish va qayta ishlash texnologik zanjirida agroklasterni shakllantirish bir qator afzalliklarga ega. Quyida klasterlar faoliyati yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarning bu boradagi fikrlari keltirilgan:

- klasterlar agrosanoat majmuasini rivojlantirishda drayver vazifasini o‘tashi mumkin. Ular yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish orqali firmalarning bozordagi raqobat ustunligini shakllantirishga imkon yaratadi [4];

- klasterlar “Sanoat 4.0” konsepsiyani amalga joriy etishda yetakchi mexanizmlardan bir sifatida katta salohiyatga ega. Ular texnologik jarayonlarni jadallashtirib, biznesni raqamli transformatsiyalashuvini ta‘minlaydi. Klaster muhiti bilimlar almashinuvi, personal malakasini oshirish, resurslar bilan ta‘minlash sohalarida tarmoqlararo intensiv aloqalarni ta‘minlashga ko‘mak beradi [5];

- klaster doirasida ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi hududlarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishga turtki beruvchi sinergetik samarani yuzaga keltiradi [6];

- klasterlar yangi iqtisodiy o‘shirish markazlarini yaratish orqali mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish va raqobatbardoshligini oshirish vositasiga aylanishi mumkin [7];

- klasterda mahsulot ishlab chiqarishning barcha jarayonlari yagona texnologik zanjirga birlashganligi sababli firmalar orasida uzoq muddatli mustahkam va barqaror xo‘jalik aloqalari shakllanadi [8];

- agroklasterni mehnat taqsimoti, hududiy va xo‘jaliklararo ixtisoslashuv hamda mehnat kooperatsiyasi kuchli rivojlangan bo‘lib, bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi [9];

- agroklasterni yakuniy mahsulotni ishlab chiqaruvchi xomashyo sifati va ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini nazorat qilishdan manfaatdor bo‘lib, bu mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [10].

Tadqiqotlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sanoat usulida chuqur qayta ishlash zanjirida integratsiyalashuv jarayonlarini chuqurlashuvi va agrosanoat klasterlarining shakllanishi bir necha turdagi samarani ta‘minlashi mumkin (1-jadval).



**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sanoat usulida qayta ishlash zanjirida agrosanoat klasterlarining samaradorligi**

<b>Samara turi</b>	<b>Kutiladigan natijalar</b>
<b>Tabiiy-jug'rofik samara</b>	- ishlab chiqarishning bir hudud doirasida konsentratsiyala-shuvi natijasida firmalararo logistik va transaksion xarajatlar tejalishidan samara; - hudud doirasida resurslar, infratuzilmalar va muhandis-lik kommunikatsiyalaridan birgalikda foydalanish natija-sida ishlab chiqarish quvvatlari samaradorligi ortishi
<b>Texnik-texnologik samara</b>	- ishlab chiqarish hajmini kengayishidan olinadigan "ko'lam samarasi" natijasida xarajatlar kamayishi; - ishlab chiqarishning uzluksiz texnologik zanjirida yagona texnik talablar va sifat standartlari joriy etish hamda tizimli nazorat etish samarasi; - operatsion xarajatlar tejalishi
<b>Mehnat samarasi</b>	- mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvdan olinadigan samara; - korxonalararo kooperatsion aloqalarni mustahkamlanishi; - yuqori malakali mutaxassis kadrlardan birgalikda foydalanish va o'zaro tajriba almashishi imkoniyati
<b>Innovatsion samara</b>	- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik jihozlashga yirik investitsiyalar kiritish imkoniyati; - zamonaviy texnologiyalar joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar va startap loyihalar uchun moliyaviy mablag'lar jalb etish imkoniyati kengligi
<b>Tashkiliy-iqtisodiy samara</b>	- ichki va tashqi manbalardan ishlab chiqarishga yirik kapital jalb etish imkoniyati ortishi; - kafolatli va ishonchli xomashyo ta'minoti hamda xomashyo yetkazib beruvchilar uchun kafolatli bozorning shakllanishi; - ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash imkoniyati; - bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar va kuchli raqobat muhitidan birgalikda himoyalanih imkoniyati; - tashish va ishlab chiqarishda yo'qotishlarni kamayishi, chiqitsiz texnologiyalarni joriy etish; - integratsion tizim ichida sinergetik samarani vujudga kelishi va boshqalar.

Manba: muallif ishlanmasi

Skandinaviyalik olimlar B.Dalum, K.Pedersen va G.Vilumsenlar klasterlarni turkumlashda quyidagi parametrlarni qo'llagan:

- geografiya – klasterlarning hajm va joylashuv bo'yicha farqlari;
- chuqurligi – klasterga kirgan firmalarning vertikal integratsiyasini rivojlanish darajasi;
- kengligi – klasterga kirgan firmalarning gorizontol integratsiyasini rivojlanish darajasi;
- klasterda ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ishtirok etishi – bu parametr klasterning innovatsion xarakterini aks ettiradi;
- klasterlarda firmalarga egalik qilish tarkibi – klasterda kichik va o'rta korxonalar, filiallar hamda yirik korxonalar nisbati [11].

Ilmiy adabiyotlarda klasterlar turli belgir va xususiyatlar bo'yicha turkumlashtirilgan. Xususan, o'zaro aloqalar turi, ixtisoslashuv darajasi, geografik konsentratsiyalashuv darajasi, qamrab olish kengligi, hayotiylik davri, tarmoqqa mansubligi, va boshqa bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha klasterlarni turkumlarga ajratish mumkin (2-jadval).



**Klasterlarning turli belgilar bo'yicha tipologiyasi**


Turkumlash parametrlari	Klaster turi
<b>Funksionallik belgisiga ko'ra</b>	tarmoq klasteri, texnologik klaster va makon (hudud) bo'yicha shakllangan klasterlar
<b>Ixtisoslashuv/diversifikatsiya darajasi bo'yicha</b>	ixtisoslashgan, diskret, lateral, kompozit va konglomerativ klasterlar
<b>E.Markuzen tipologiyasi bo'yicha</b>	marshallian, radial, yo'ldoshli va davlatga birlashtirilgan distriktiv klasterlar
<b>Integratsiyalashuv turi bo'yicha</b>	gorizontal, vertikal va aralash integratsiya-lashgan klasterlar
<b>Geografik konsentratsiyalashuv belgisi bo'yicha</b>	mahalliy, mintaqaviy (hududiy), milliy, transchegaraviy va transnatsional klasterlar
<b>Hayotiylik davri bo'yicha</b>	aglomeratsiya, shakllanayotgan, rivojlanayotgan, yetilgan, transformatsiyalanayotgan klasterlar
<b>Tarmoq ixtisoslashuvi bo'yicha</b>	innovatsion, sanoat, agrosanoat, turistik, biotibbiyot, xizmatlar sohasida, transport-logistik va boshqa klasterlar
<b>Rivojlanish darajasi bo'yicha</b>	latent, potensial, barqaror, kuchli klasterlar
<b>Shakllanish mexanizmi bo'yicha</b>	markazlashtirilgan va mustaqil shakllangan klasterlar
<b>Kelib chiqishi tarixiga ko'ra</b>	evolyusion tarzda shakllangan va sun'iy tashkil etilgan klasterlar
<b>Innovatsiya darajasi bo'yicha</b>	an'anaviy, innovatsion klasterlar
<b>Faoliyat yo'nalishi bo'yicha</b>	mustaqil, tayyorlov-qayta ishlash, aralash

Manba: ilmiy manbalar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

Faoliyat yo'nalishi va integratsiyalashuv mazmuniga ko'ra mustaqil, tayyorlov-qayta ishlash va aralash klasterlar farq qiladi. Masalan, agrosanoat sohasida quyidagi klasterlar shakllanib bormoqda:

- **mustaqil** – to'liq siklda (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish bo'yicha) faoliyat olib borish uchun o'ziga birlashtirilgan yer maydonlariga (plantasiyalarga) ega agroklasteralar;
- **tayyorlov-qayta ishlash** – ho'l yoki qayta ishlab sotish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini boshqa ishlab chiqaruvchilardan (fermer, dehqon xo'jaliklari va boshq.) shartnoma asosida sotib oluvchi agroklasteralar;
- **aralash** – mahsulot yetishtirish uchun belgilangan tartibda o'ziga ajratilgan yer maydonlariga (plantasiya) ega va bir vaqtda shartnoma asosida mahsulot yetishtiruvchilardan (fermer va dehqon xo'jaliklari, agrofimlar, kooperativlar va boshqalardan) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab sotish uchun oluvchi klasterlar.

Ma'lumotlarga ko'ra 2022 yil 25 iyul holatiga respublikamizda jami 463 ta agrosanoat klasterlari faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 122 tasi (1033,0 ming gektarda) paxta-to'qimachilik, 146 tasi (116,1 ming gektarda) meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, 35 tasi (43,4 ming gektarda) sholichilik va 157 tasi (1038,0 ming gektarda) (1-rasm).



**1-rasm. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini tarmoq yo'nalishlari bo'yicha turkumlanishi, (2022 yil 25 iyul holatida)**




Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari. [www.agro.uz](http://www.agro.uz)

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va sanoat usulida qayta ishlashga ixtisoslashgan agroklaster faoliyatining taklif etilayotgan tashkiliy-funksional modelida qo'shilgan qiymat yaratish zanjiri 4 bosqichdan iborat bo'ladi.

**Birinchi bosqichda** fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari hamda klasterning o'ziga birlashtirilgan yer maydonlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari (xomashyo) yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (xomashyoni) yetishtiruvchi xo'jaliklari klasterning yadrosi bo'lgan integrator firma (odatda qayta ishlovchi sanoat korxonasi) bilan gorizontal yoki vertikal integratsiya orqali shartnomaviy munosabatlarga ega bo'ladi.

**Ikkinchi bosqich** klasterning yadrosi sanaladi va bu bosqichda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan shartnomalar asosida yetkazib berilgan xomashyo sanoat korxonasi tomonidan dastlabki va chuqur qayta ishlash jarayonlaridan o'tadi. Bu bosqichda yetkazib berilgan xomashyo tayyor mahsulot ko'rinishiga keltirilib, qo'shilgan qiymat ortadi.

**Uchinchi bosqichda** sanoat korxonasi tomonidan qayta ishlangan va tayyor mahsulotga aylantirilgan tovarlar standartlash va sertifikatlash, saralash, kalibrlash, qadoqlash, markirovkalash hamda sotish kanallariga yetkazib berish (logistika) jarayonlaridan o'tib, qo'shilgan qiymat summasi yana ortadi.



2-rasm. Klaster tizimida tashqi muhit tuzilmalari

Manba: mualliflar ishlanmasi

**To'rtinchi bosqichda** tayyor mahsulot ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qilinib, yakuniy iste'molchiga yetkaziladi. Bu bosqichda ham mahsulotga ma'lum bir qiymat qo'shiladi va bularning barchasi qo'shilgan qiymat zanjirini tashkil etadi.





► Makroiqtisodiyot

Agroklasterning tashkiliy-funksional tuzilmasida klaster yadrosi hamda uni o‘rab turuvchi ichki va tashqi muhit farq qiladi:

1. Klaster yadrosi – yakuniy mahsulotni ishlab chiqaruvchi va uning atrofida klaster hosil qiluvchi tuzilmalar uyushadigan ob‘ekt. Odatda u qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini birlamchi va chuqur qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi sanoat korxonasi bilan iborat bo‘ladi.

2. Klaster yadrosini o‘rab turuvchi “to‘ldiruvchi ob‘ektlar – (ichki muhit)” – ular klaster yadrosi sanaladigan qayta ishlash korxonasi bilan shartnoma asosida strategik hamkorlik qiluvchi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, saqlash omborxonalaridan tashkil topadi.

3. Klasterni o‘rab turuvchi tashqi muhit uchta blokdan shakllanadi (2-rasm).

1-xizmat ko‘rsatish bloki: klaster tuzilmalariga moddiy-texnik resurslar yetkazib berish, turli ish va xizmatlar ko‘rsatish hamda moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi infratuzilmalar.

2-ilmiy tadqiqot bloki: universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari, injiniring va innovatsion tuzilmalar, kasb-hunar kollejlari, malaka oshirish va kasb o‘rgatish kurslari, seminar-treninglar va boshq.

3-blok: klaster faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash bilan mashg‘ul mahalliy, markaziy darajadagi davlat boshqaruvi organlari va institutsional tuzilmalar (uyushmalar, jamg‘armalar, kengashlar).

Keltirilgan ma‘lumotlardan ma‘lumki, klaster tizimida xomashyo yetkazib berish va qayta ishlash korxonalari hamda xizmat ko‘rsatish infratuzilmalaridan tashqari ilmiy tadqiqot muassasalari (universitetlar, ilmiy markazlar, venchur fondlar va firmalar, startap loyihalar va boshqa) va klasterni qo‘llab-quvvatlovchi institutsional tuzilmalarning (uyushmalar, jamoat fondlari, Fermerlar kengashi, Savdo-sanoat palatasi va boshqa) ishtirok etishi o‘ta muhim sanaladi.

Misol tariqasida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida Paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot instituti, Tekstil va yengil sanoat instituti kabi ilmiy muassasalarning ishtiroki quyidagi masalalarni samarali hal etishda klasterga ko‘maklashishi mumkin:

- g‘o‘za navlarini har bir tumanning tabiiy-iqlim sharoiti va tuproq tarkibidan kelib chiqib ilmiy joylashtirish va rayonlashtirish;

- hosildor, kasalliklarga chidamli va sifatli g‘o‘za navlarini yaratish;

- mineral va organik o‘g‘itlar hamda kimyoviy himoyalash vositalaridan foydalanishning ratsional miqdori va muddatlarini belgilash;

- paxta tozalash va tekstil korxonalarini optimal joylashtirish (xomashyo va yarimfabrikatlarni tashish xarajatlarini tejash imkonini beradi);

- yangi innovatsion mahsulot turlarini yaratish va o‘zlashtirish;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish va boshqalar.

Kuzatishlarga ko‘ra respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan aksariyat klasterlar tizimida ilmiy tadqiqot muassasalari va innovatsion venchur fondlar ishtirok etmayapti. Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi kabi nodavlat tuzilmalar ishtiroki esa deyarli sezilmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan klasterni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus fondlar, uyushmalar (masalan, meva-sabzavotchilik, g‘allachilik va go‘sh-tsut yo‘nalishidagi klasterlar uyushmasi mavjud emas), jamoat tashkilotlari, innovatsion markazlar juda sust rivojlangan. Shuningdek, strategik ahamiyatga ega sohalarda davlat-xususiy sherikligi asosida qayta ishlash korxonalari, saqlash va logistika tizimlari barpo etish mexanizmi shakllanmagan. Masalan, yuqorida keltirilganidek Janubiy Koreyaning “Foodpolis” klasterida tayyor zavod sexlari va omborlarini kichik korxonalariga ijaraga berish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Respublikamizda agrosanoat majmuasida klasterlarni shakllantirish jarayoni 2018 yildan boshlanganini e‘tiborga olsak, bu borada yetarli tajribamiz yo‘qligini e‘tiborga olishimiz lozim. Xususan, yangi tashkil etilayotgan agrosanoat klasterlarining tashkiliy-huquqiy shaklini tanlash masalasi dolzarb masalalardan sanaladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, respublikamizning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash zanjirida agroklasterning tashkiliy-huquqiy jihatdan quyidagi shakllari faoliyat ko‘rsatmoqda:



1. O'ziga birlashtirilgan yer maydonida ishlab chiqarishning to'liq siklini o'zlashtirgan (xomashyo yetishtirish va qayta ishlashdan toki tayyor mahsulot yaratishgacha jarayonlarni o'zi bajaradigan) mustaqil agroklasterlar. Bu turdagi klasterlar tarkibida shartnoma asosida xomashyo yetishtirib beruvchi mustaqil fermer xo'jaliklari mavjud bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 sentyabrdagi 736-sonli "Namangan viloyatining Mingbuloq va Pop tumanlarida agrosanoat klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Turkiyaning "Altintoprak Pamuk Tekstil Tarim Nakliyat Sanayi Ve Ticaret Limited Sirketi" kompaniyasi tomonidan Namangan viloyatining Mingbuloq va Pop tumanlarida tashkil etilgan "Art Soft Holding" mas'uliyati cheklangan jamiyati (MChJ) shaklidagi agroklaster mustaqil ishlab chiqarish sikliga ega agroklasterlarga misol bo'ladi. "Art Soft Holding" MChJ agroklasteri tarkibiga 19 ta turli agrosanoat korxonalarini kiradi va u ishlab chiqarish va qayta ishlashning to'liq siklini qamrab olganligi bilan diqqatga sazovor. Bu agroklasterda ishlab chiqarish va ilm-fan hamkorligi ham ta'minlangan. Ammo klasterning ixtisoslashuvi bo'yicha universitet va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan integratsion aloqalari yetarli emas.

Bu turdagi klasterlarda qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishda dehqonlar hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashdan manfaatdorligini ta'minlash uchun ichki ijara yoki oilaviy pudratni joriy etish yaxshi samara berishi mumkin.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini boshqa mustaqil ishlab chiqaruvchilardan (fermer, dehqon xo'jaliklari va boshq.) shartnoma asosida sotib olib qayta ishlovchi agroklasterlar. Bu xildagi klasterlarning ayrimlarida xomashyo yetishtirish uchun ajratilgan yer maydonlarining bir qismi o'ziga, bir qismi esa mustaqil fermer xo'jaliklariga tegishli. Boshqa birlarida o'zida yer maydoni mavjud bo'lmay, xomashyoni to'liq shartnoma asosida mustaqil fermer xo'jaliklaridan sotib oladi.

Kuzatishlarga ko'ra aynan shu turdagi klasterlarda klaster tarkibiga kiruvchi xomashyo yetishtirib beruvchi fermer xo'jaliklari va klasterning yadrosini tashkil etuvchi firma bilan o'zaro shartnomaviy aloqalarni yo'lga qo'yishda bir qator muammolar kuzatilmoqda. Jumladan:

1. Hozirgi kunda klasterning yadrosi sanaladigan firma asosan mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) yoki xususiy korxonasi (XK) sifatida faoliyat olib bormoqda. Klasterga birlashtirilgan fermer xo'jaliklari ham yuridik jihatdan mustaqilligini saqlab qolgan. Ammo ishlab chiqarish texnologik zanjirining barcha bosqichlari klasterning yadrosi bo'lgan firma (ko'pincha qayta ishlash korxonasi) tomonidan boshqarilib, nazorat qilinmoqda. Fermer xo'jaliklari tomonidan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish, parvarishlash va xomashyoni yetkazib berish jarayonlari ham shular jumlasidan. Natijada qonunchilik bo'yicha yuridik jihatdan mustaqil sanaladigan fermer xo'jaliklari klasterga qaram xo'jalikka aylanib qolmoqda.

2. Avvalgi tartib bo'yicha davlat buyurtmasi bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish uchun Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar shartnoma asosida to'g'ridan-to'g'ri fermer xo'jaliklariga ajratiladi. Amaldagi tartibga ko'ra esa bu turdagi imtiyozli kreditlar klasterning yadrosi bo'lgan qayta ishlash sanoat korxonasi ajratilmoqda va u fermer xo'jaliklarini urug'lik, ko'chat, mineral o'g'itlar va boshqa moddiy resurslar bilan ta'minlash, yer haydash, ekinlarga ishlov berish, hosilni o'rib-yig'ib olish kabi xizmatlarni ko'rsatmoqda.

Bu holatda bir qarashda fermer xo'jaliklari moddiy texnika ta'minoti, turli ishlar va xizmatlarni bajarishga turli firmalarni jalb etish hamda haq to'lash bilan bog'liq ortiqcha tashvishlardan ozod bo'lgandek ko'rinadi. Ammo klaster fermer xo'jaliklaridan xomashyoni (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini) past narxlarda qabul qilib, ularga o'zi yetkazib berayotgan moddiy resurslar hamda ko'rsatayotgan xizmatlariga yuqori narx belgilash orqali foydaning katta qismini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu holat fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, klaster tomonidan Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlardan maqsadsiz foydalanish, ya'ni kreditni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi xarajatlarini moliyalashtirishdan boshqa maqsadlarga sarflash yoki naqdashtirish holatlari borligini ham e'tibordan qochirmasligimiz lozim. Chunki, ba'zi klasterlar o'zining monopol mavqeidan foydalanib fermer xo'jaliklariga haqiqatda yetkazib berilgan moddiy resurslar (mineral o'g'it, yoqilg'i va boshqa) va ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan ortiq ko'rsatilgan hisobvараqalarni imzolashga majbur qiladi.



Bundan tashqari moliyaviy mablag'larga ehtiyoj yuqori bo'lgan ish jarayonlarida imtiyozli kreditlarni fermer xo'jaliklariga yo'naltirmaslik ishlab chiqarishni moddiy resurslar va xizmatlar bilan o'z vaqtida ta'minlashda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi (ba'zan klasterlar kerakli resurslar va xizmatlarni o'z vaqtida yetkazib bermaydi). Shuningdek, yerlarni ekishga tayyorlash, ekinlarni ekish va parvarishlash, hosilni yig'ib olish jarayonlarini o'z texnikalari bilan amalga oshiradigan fermer xo'jaliklari imtiyozli kredit ajratilmasligidan ziyon ko'rmoqda.

Ba'zan klasterlar tomonidan fermerlarga yetkazib berilgan xomashyo uchun pul o'tkazib berish muddatlari asossiz ravishda cho'zilib ketadi. Bu esa fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarishni aylanma mablag'lar bilan o'z vaqtida ta'minlashi hamda to'lov qobilligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda PQ-4549-sonli qarori 2-bandida ishlab chiqaruvchilarni klasterlarga birlashtirish ixtiyoriylik asosida, ular bilan qayta ishlovchi hamda eksportga chiqaruvchi tashkilotlar, shuningdek hokimiyat bilan mahsulot yetkazib berishga tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi deb ko'rsatilgan. Ammo ko'p holatlarda mahalliy hokimiyat tomonidan fermer xo'jaliklarini geografik joylashuvidan kelib chiqib bir hudud doirasida barcha fermer xo'jaliklarini bitta klasterga majburiy birlashtirish holatlari kuzatilmoqdaki, bu holat ularning eng maqbul klasterlarni tanlash erkinligini yo'qqa chiqarmoqda. Bu esa bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan bo'lgan tadbirkorlik va tanlov erkinligiga zid bo'lmoqda.

4. Bir hudud doirasida bitta ixtisoslashgan klaster tashkil etish klasterning monopol mavqeni egallashiga va raqobat muhitini bo'g'ishiga olib kelishi shubhasiz. Bugungi kunda respublikamizda monopoliyani cheklash va raqobat muhitini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganini e'tiborga olsak, klasterlashtirish jarayonlari joylarda monopol tuzilmalar ko'payishiga olib kelmasligi kerak.

Fikrimizcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi dehqon va fermer xo'jaliklari va qayta ishlash klasterlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar o'zaro teng huquqlilik va manfaatdorlik asosida olib borilishi hamda quyidagi shartlarga muvofiq kelishi maqsadga muvofiq:

- klasterlarga a'zolik va qaysi klasterni tanlash masalasini dehqon va fermer xo'jaligi mustaqil hal etishi;
- bitta hududda bitta klasterning monopol mavqega ega bo'lishiga aslo yo'l qo'ymaslik.


Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, agar klaster yuridik jihatdan mustaqil bo'lgan fermer xo'jaliklari va qayta ishlash korxonasi (korxonalari) hamda xizmat ko'rsatuvchilar hamkorligi shaklida, shartnoma asosida tuzilsa, bunday klasterning tarkibiy va boshqaruv tuzilmasi ikki usulda tashkil etilishi mumkin:

**1-usul.** Klaster tizimidagi barcha xo'jaliklar (xomashyo yetishtirib beruvchi fermer va dehqon xo'jaliklari) va korxonalar (qayta ishlash, saqlash va sotish yo'nalishidagi) yuridik jihatdan mustaqilligini saqlab qoladi va klaster yadrosi sanaladigan firma (masalan, qayta ishlash korxonasi) atrofida shartnomalar asosida uyushadi. Bu holatda klasterga kiruvchi korxonalar va xizmat ko'rsatuvchi firmalar orasidagi iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish uchun barcha ishtirokchilar hamda institutsional tuzilmalar (Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, mahalliy hokimiyat, Klasterlar uyushmasi va boshqa) vakillaridan iborat Kuzatuv kengashi shakllantiriladi.

Kuzatuv kengashi zimmasiga qonunchilik tartibida quyidagi vazifalar yuklatilishi joiz: klaster tizimidagi barcha korxonalar va xo'jaliklarning o'zaro manfaatli va teng huquqli shartnomaviy munosabatlar bajarilishini nazorat qilish; tomonlardan birining monopol mavqeidan foydalanib boshqalarning huquqlari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; xomashyo, ishlar va xizmatlarga narx belgilashda barcha tomonlar manfaatlarini e'tiborga olinishini ta'minlash; o'zaro noto'lovlarning oldini olish va boshqalar.

Bu holatda Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan paxta xomashyosi, don va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlarni to'g'ridan-to'g'ri fermer xo'jaliklariga ajratishga mexanizmini qaytadan joriy etish maqsadga muvofiq. Buning natijasida bir tomondan fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarini o'z vaqtida va maqsadli moliyalashtirish imkoni yaratilsa, ikkinchi tomondan ajratilayotgan imtiyozli kreditlarni maqsadli ishlatilishi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish yengillashadi.





**3-rasm. Ustav kapitali ulushlarga asoslangan klaster boshqaruvi tuzilishi**  
(shartli raqamlarda)

Manba: mualliflar ishlanmasi

**2-usul.** Ustav kapitali klaster ishtirokchilar (qayta ishlash korxonalari, fermer xo'jaliklari, moddiy ta'minoti va xizmat ko'rsatish korxonalari) ulushlarining nominal qiymatidan shakllantiriladigan klaster. Bu holatda yuridik shaxs maqomidagi bir nechta mustaqil ishtirokchilar uyushib, mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) yoki shirkat shaklida klaster tashkil etadi va klaster ustav kapitaliga ulush kiritadi. Klasterda ishtirokchilarning ustav kapitaldagi ulushidan kelib chiqib qaror qabul qilinadigan Boshqaruv kengashi tuziladi va qaror qabul qilish qo'shgan ulushlarga mutanosib ovoz berish asosida amalga oshiriladi. Eng ko'p ulush kiritgan firma Boshqaruv kengashi raisi sanaladi (3-rasm).

Agar klaster ustav kapitaliga uning ishtirokchilari ulush kiritrsa hamda ular ustav kapitalidagi ulushiga mutanosib Boshqaruv kengashida ovoz berish huquqiga ega bo'lsa, klaster tizimidagi barcha ishtirokchilar manfaatlarini e'tiborga olish imkoniyati yaratiladi. Bu esa yuqorida keltirilgandek klaster yadrosi bo'lgan qayta ishlash korxonasi manfaatlarini boshqa ishtirokchilardan ustun qo'yilishini, ayniqsa fermer xo'jaliklari manfaatlariga ziyon keltiruvchi shartlarni majburan o'tkazishni oldini oladi va qo'shilgan qiymat zanjirida foydani to'g'ri taqsimlanishiga zamin yaratadi.

### Xulosa va tavsiyalar

Klasterlar faoliyatini rivojlangan xorijiy mamlakatlarda erishilgan ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida yana quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Respublikada "Agrosanoat majmuasi tutash tarmoqlarini klasterlashtirish Konsepsiyasi"ni qabul qilish va unda o'rta va uzoq muddatli davrlar uchun amalga oshiriladigan vaziflar hamda erishiladigan maqsadli ko'rsatkichlarni aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiq.

Konsepsiya doirasida "Respublika agrosanoat klasterlarini kompleks rivojlantirish davlat dasturi"ni ishlab chiqib, unda: klasterlarni respublika hududlari bo'ylab rayonlashtirish va joylashtirish yo'l xaritasi; ixtisoslashuvi; klasterga jalb etiladigan korxonalar va tashkilotlar hamda boshqa tuzilmalar ro'yxati; klasterlarning ishlab chiqarish-resurs salohiyati; amalga oshiriladigan aniq loyihalar turlari; mahsulot ishlab chiqarish prognoz ko'rsatkichlari; jalb etiladigan investitsiyalar qiymati, yo'nalishlari va manbalari kabi maqsadli prognoz ko'rsatkichlarni kiritish va amalga oshirish yaxshi samara beradi.

Yevropa Ittifoqi (Yevropa klasterlari hamkorligi dasturi, Yevropa klasterlarini mukammallashtirish dasturi), Yaponiya (Yaponiya sanoatini klasterlashtirish rejasi, Xokkaydo sanoat klasterlari konsepsiyasi), kabi ilg'or xorijiy mamlakatlar bo'yicha yuqorida keltirilgan misollarda bunday tajribalar keng qo'llanilishiga guvoh bo'ldik. Rossiya Federatsiyasining Bryansk oblastida "2019-2022 yillarda Bryansk oblasti hududida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasi" qabul qilingan va amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiya "Bryansk biznes-inkubatori" davlat unitar muassasasi buyurtmasiga ko'ra "Bryansk davlat muhandislik-texnologiya instituti" olimlari ishtirokida ishlab chiqilgan. Bu strategiya doirasida 2019-2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ham qabul qilingan. Bunday hujjatlar





► Makroiqtisodiyot

RFning boshqa hududlari bo'yicha ham qabul qilingan.

2. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularda klasterlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi va ularning manfaatlarini davlat organlari, boshqa sub'ektlar oldida himoya qiluvchi va ilgari suruvchi ko'p sonli institutsional tuzilmalar (uyushmalar, birlashmalar, jamoat fondalari va boshqa) keng tarqalgan.

Respublikamizda aynan klasterlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi tuzilmalar sust rivojlangan, ayrim tarmoqlar bo'yicha esa umuman mavjud emas. Masalan, respublikamizda faqat "Paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi" faoliyat ko'rsatmoqda. Meva-sabzavotchilik, donchilik, go't-sut mahsulotlari va boshqa tarmoqlarda klasterlar manfaatlarini himoya qiluvchi va ilgari suruvchi uyushmalar mavjud emas. Shundan kelib chiqib paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi negizida yagona "Respublika agrosanoat klasterlari uyushmasi"ni tashkil etish va uning tarkibida quyidagi bo'limlarni (departamentlarni) shakllantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1) Paxta-to'qimachilik klasterlari departamenti; 2) Meva-sabzavotchilik va uzumchilik (salqin ichimliklar va aroq-vino korxonalarini qo'shgan holda) klasterlari departamenti; 3) Don va qandolatchilik mahsulotlari klasterlari departamenti; 4) Go'sht-sut mahsulotlari klasterlari departamenti va boshqalar.

Bunday institutsional tuzilmalar Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, Yaponiyaning har bir provensiyasida "Klasterlar kooperatsiyasi kengashi" va uning shtabi, Rossiya Federatsiyasida esa "Klasterlar, texnoparklar va maxsus iqtisodiy zonalar assotsiatsiyasi" faoliyat olib boradi.

Shuningdek, tuman Hokimligi huzurida jamoatchilik asosida "Klasterlarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash Kengashi"ni tuzib, uning tarkibiga hokimiyatning tegishli bo'limlari, Fermer va dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi, Savdo-sanoat palatasi, o'quv va ilmiy muassasalar, tijorat banklari va boshqa tuzilmalar vakillarini kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur Kengash bir tomondan hududlarda klasterlarni rivojlantirish bo'yicha maslahatlashuv organi vazifasini o'tasa, ikkinchi tomondan klaster tizimidagi korxonalararo o'zaro teng huquqli munosabatlarni yo'lga qo'yishni nazorat qilish vazifasini bajarishi lozim.

Daniya va Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, tavsiya etilayotgan Kengashlar qoshida hududni klasterlash salohiyati hamda imkoniyatlarini o'rganish va bu borada tegishli tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlar tuzish mumkin.

3. Klasterlar yuksak taraqqiy etgan ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, "globallashuv" va "bilimlar iqtisodiyoti" sharoitida klasterlar innovatsion rivojlanishning eng asosiy manbalaridan biri bo'lib bormoqda. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar klasterlari tarkibida "bilim va innovatsiyalar bloki", ya'ni universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, sinov laboratoriyalari, venchur fondlar va startap loyihalarning ishtiroki asosiy shartlardan biri sanaladi. Yaponiyaning klasterlash siyosatida har bir klaster guruhiga uchun ixtisoslashuvidan kelib chiqib bitta yoki bir nechta universitet (ilmiy tadqiqot muassasasi) birlashtirilgan va mas'ul sanaladi.

Fikrimizcha, respublikamizda shakllantirilayotgan har bir klaster tarkibida "Innovatsion ishlanmalar va yangi biznes g'oyalarini joriy etish" markazlarni (laboratoriyasini) shakllantirib, klasterning ixtisoslashuvi-dan kelib chiqib yetakchi universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarini ularga birlashtirish, ilmiy-innovatsion markazlar, venchur fondlar va kompaniyalar bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/3889>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – Cambridge, 1998. – Vol. 76, № 6. – P. 77.
4. A Practical Guide to Cluster Development: A Report to the Department of Trade and Industry and the English RDAs by Ecotec Research & Consulting. – London: Department of Trade and Industry, 2004. <http://www.dti.gov.uk/files/file14008.pdf>.





5. Марков Л.С. Теоретико-методологические основы кластерного подхода. Монография. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2015. – с. 6.
6. Зубова Т.А. Управление развитием региональных агропромышленных кластеров. Автореферат дисс. на соиск. учёной степени к.э.н. Воронеж-2018.
7. Настин А.А. Формирование агропромышленного кластера в регионе. Автореферат дисс. на соиск. учёной степени к.э.н. Москва-2013.
8. Porter, M. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG>.
9. Eva Gálvez-Nogales. Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy. FAO of the United Nations. Rome, Italy, 2010. P. 4.
10. Götz M. The Industry 4.0 Induced Agility and New Skills in Clusters. Foresight and STI Governance, vol. 13, no 2, pp. 72–83. DOI: 10.17323/2500- 2597.2019.2.P. 72-83.
11. Щукина Л.В. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // Вестник ГГТУ им. П.О. Сухого: научно-практический журнал. - 2014. - № 3. - С.97-104
12. Петухов Н.А. Региональные инновационные системы: проблемы кластерного развития / Н.А. Петухов // Управление инновациями и стратегия инновационного развития России. – М., 2007. - С. 91 – 98. [www.eg-online.ru/article/404193](http://www.eg-online.ru/article/404193).
13. Солиев А., Кодиров Х. Кластеризация экономики - важнейший фактор стратегического планирования. Иқтисодиёт: таҳлиллар ва прогнозлар. Т.: 2019., №1. 104-108 б.
14. Скворцов Е.Н. Формирование организационной структуры управления промышленным кластером. Дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. по спец. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (промышленность). Саранск-2016. – С. 23-24.
15. Е.Куценко, С.Артемов и др. Агропромышленные кластеры: зарубежный опыт и российские практики. Российская кластерная обсерватория ИСИЭЗ ВШЭ. Москва-2017
16. Dalum B., Pedersen C., Villumsen G. Technological Life-Cycles: Regional Clusters Facing Disruption. Department of Business Studies, Aalborg University, Aalborg Oe, Denmark. <https://www.researchgate.net/publication/4899992>.
17. Markusen, A. 1996, Sticky places in slippery space: a typology of industrial districts, Economic Geography, Vol. 72 (3), PP. 293-313.





# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>

## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

[laboreconomics.uz](https://laboreconomics.uz)

*Muharrirlar:*

*Yaxshiyev H.T.*

*Matxo'jayev A.O.*

*Musahhih:*

*Kamilova D.J.*

*Tehnik muharrir:*

*Mirzayev J.O'.*

Litsenziya AI № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 31,6. Raqamli bosma.  
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

“Zarafshon Foto” MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.  
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.



CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER

1st DIRECTION: TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

19-20 OCTOBER 2023

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS,

TASHKENT, UZBEKISTAN

ФОРУМ

ICFNDS and ICDSIS"

"NEW2AN,

Parallel conferences

CONFERENCE

DEVELOPMENT STRATEGY:

GLOBAL ECONOMIC TRENDS

"IFRS" ФОРУМ

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ЎНАЛИШЛАРИ. "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари" номли конференция

"IFRS" НОМЛИ КОНФЕРЕНЦИЯ

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

PARALLEL CONFERENCES

"NEW2AN AND ICDSIS"

AND ICDSIS"



- Conditions for improvement
- Corporate Accounting
- Institutional problems
- Training personnel for the future
- Business environment
- Digital technologies

CONFERENCE

"GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER



100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

+998 99 881-86-98

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz

ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digital
- Green
- Environmental
- Alternative
- Artificial